

INTERNET TARMOG'IDAN TO'G'RI FOYDALANISH MADANIYATI

Norqulov Farid Otamurodovich

Haqqulov Ibragim Qahramon o'g'li

Qashqadaryo viloyati Koson tumani 3-sonli politexnikumi
Informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *ushbu maqolada internet tarmog'idan to'g'ri foydalanish madaniyati haqida sohaga oid asosiy tushunchalar va amaliy tavsiyalar o'rganiladi. Internetning kundalik hayotimizdagi ahamiyati ortib borayotgan bir paytda, uning imkoniyatlaridan xavfsiz va samarali foydalanish madaniyatini shakllantirish zarurati ko'rib chiqiladi. Maqola ichida axborotlarni tanlash, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, etikani saqlash va internet resurslaridan mas'uliyat bilan foydalanish kabi muhim jihatlar tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *internet madaniyati, axborot xavfsizligi, onlayn etik, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, internetdan to'g'ri foydalanish, axborot tanlash, internet qoidalari.*

КУЛЬТУРА ПРАВИЛЬНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕРНЕТА

Норкулов Фарид Отамуродович

Хаккулов Ибрагим Кахрамон угли

Политехнический колледж № 3, Косонский район,

Кашкадарьинская область

Преподаватель информатики и информационных технологий

Аннотация: в данной статье рассматриваются основные понятия и практические рекомендации, связанные с культурой правильного использования Интернета. В эпоху возрастающей значимости Интернета в нашей повседневной жизни рассматривается необходимость формирования культуры безопасного и эффективного использования его возможностей. В

статье анализируются такие важные аспекты, как выбор информации, защита персональных данных, этика и ответственное использование интернет-ресурсов.

Ключевые слова: интернет-культура, информационная безопасность, онлайн-этика, защита персональных данных, правильное использование Интернета, выбор информации, правила пользования Интернетом.

CULTURE OF CORRECT USE OF THE INTERNET

Norqulov Farid Otamurodovich

Hakqulov Ibragim Kahramon oglu

Polytechnic School No. 3, Koson district, Kashkadarya region

Teacher of Informatics and Information Technologies

Abstract: this article examines the basic concepts and practical recommendations related to the culture of correct use of the Internet. At a time when the importance of the Internet in our daily lives is increasing, the need to form a culture of safe and effective use of its capabilities is considered. The article analyzes such important aspects as information selection, personal data protection, ethics and responsible use of Internet resources.

Keywords: internet culture, information security, online ethics, personal data protection, correct use of the Internet, information selection, Internet rules.

KIRISH

Hozirgi kunda internet inson hayotining ajralmas qismiga aylangan. U axborot olish, muloqot qilish va ta'lim olishda keng imkoniyatlar yaratadi. Biroq, internetdan noto'g'ri yoki salbiy maqsadlarda foydalanish zararli oqibatlariga olib kelishi mumkin. Shuning uchun, har bir foydalanuvchi uchun internet tarmog'idan to'g'ri, madaniyatli va xavfsiz foydalanishni o'rganish muhimdir. Internet

madaniyati – bu axborotlarni tanlashda ehtiyotkorlik, onlayn muloqotda odob-axloq qoidalariga rioya qilish va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilishni o‘z ichiga olgan kompleks tushuncha.

ASOSIY QISM

Internet tarmog‘i kun sayin har bir tashkilot, ijtimoiy muassasa, o‘quv yurtlari va xonadonimizga kirib kelmoqda. Respublikamizda internetdan foydalanuvchilar soni ortib bormoqda. Ko‘pchilik yoshlar hayotiy tasavvurga yetarlicha ega bo‘lmasa-da, lekin axborot vositasiga aylanib qolmoqda. Bu shunday taajjubsiz holatki, sababi yoshlar o‘zlariga referat yoki kurs ishi izlab, musiqa eshitish, o‘ziga yoqqan kitobni sotib olish yoki forum mavzularini jonli mushohadalarida ishtirok etish orqali internetga kirib bormoqdalar.

Internet ta’lim olish, dam olish yoki do‘stlar bilan muloqot qildishning ajoyib vositasi bo‘lishi mumkin. Ammo hayotga real ko‘z bilan qaraydigan bo‘lsak, tarmoq o‘z o‘rnida xavfdan ham xoli emas albatta: uning ham o‘ziga xos bezoriligi, jinoiy olami, zarari va nomaqbullik tomonlari mavjuddir. Virtual muloqot insonlarga, bolalarga zarar keltiruvchi manba bo‘lib qolishi ham hech gap emas aslida. Oxirgi vaqtlarda Internetda ko‘pgina tajovuzkor va ijtimoiy xavfli materiallar paydo bo‘lib qolmoqda.



Internet bu – hozirgi zamon talabidagi yagona ommabop kompyuter tarmog‘i bo‘lib, bizga barcha sohalarga oid noaniqlik ya’ni ongimizga mavhum bo‘lgan tushunchalar haqida ochiq, oddiy va ravon ma’lumot beruvchi axborot manbaidir. Tabiiyki, hozirgi kunda ushbu omilga bo‘lgan ehtiyojmandlar soni kundan kunga ortib bormoqda. Mazkur tarmoq butun dunyo miqyosida global tarmoq hisoblanadi. Zero unda mavjud yangiliklardan xabardor etuvchi matnlar, tasvir hamda ovoz xizmatlari va bir qator imkoniyatlar barcha jabhada katta yengilliklarni yuzaga keltirayotgan bo‘lsa-da, ammo ikkinchi tomondan insoniyatni beixtiyor virtual olamga jalb etib bormoqda.

Ayniqsa bu ta’sir doirasidan o‘smir yoshlar ham yo‘q emas albatta. Bu borada mutaxassislarining so‘zlari quyidagi natijalarni isbotlab bermoqda:

Internet tarmog‘idagi ijobiylik insonning fan, soha va faoliyatiga bog‘liq muhim aniq dalillarga ega bo‘lishida har tomonlama qulayligi va tegishli vaqt miqdorining tejalishiga olib kelishi hammaga ayon, lekin qiziquvchanlik sababli Internet axborotlaridagi ortiqcha ma’lumotlarga haddan ziyod berilib

ketishlaridir. Izlanuvchanlik, fikriy rivojlanish, mushoxada, tahlil qilish qobiliyati hamda xotiraning o'tkirlik darajasini susaytirishga sabab bo'lmoqda.

Ma'lumki, Internet vositasidan foydalanish hech kimga majburiy bo'lmagan va insonning o'z tafakkuridan kelib chiqqan qonun-qoidalar asosida bo'lishi kerakligi hamda undagi me'yor talablari, ya'ni Internet tarmog'idan axborotlarni to'g'ri tanlash har bir jihatdan o'rinlidir. Bundan ko'rinib turibdiki, ushbu tarmoq vositasining o'z ichiga qamrab olgan axborotlar miqyosi shu qadar keng va ko'p ekanligi gohida o'zimizga kerakli bo'lgan ma'lumotlarni ajratib olishimizda ham bir muncha qiyinchilik tug'dirmoqda.

XULOSA

Internet tarmog'idan to'g'ri foydalanish madaniyati zamonaviy jamiyatda axborot texnologiyalaridan faol va xavfsiz foydalanishning asosiy omilidir. Ushbu madaniyatni rivojlantirish foydalanuvchilarning axborotga munosabatini sifatli darajaga ko'taradi, noqonuniy, zararli yoki yolg'on ma'lumotlardan himoya qiladi. Shuningdek, internet etikasi va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish qoidalariga amal qilish jamiyatda ishonch va xavfsizlikni mustahkamlaydi. Shu sababli, har bir foydalanuvchi internet madaniyatini o'rganishi, uni kundalik hayotda tatbiq qilishi lozim.